Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL.....	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIQ-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLAKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	



YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELI	1644
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA).....	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ.....	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIYAVIY HISOBTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIYAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI.....	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1794
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МОДЕЛЕЙ УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	1804
Холикова Сабохат Абдукарим кизи	
IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	1809
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
“HUDUDGAZTA'MINOT” AKSIYADORLIK JAMIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	1812
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1818
Hamroeva Zuhra Amiral qizi	
ОСНОВНЫЕ ДРАЙВЕРЫ ИННОВАЦИОННОГО РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	1824
Самадқулов Мухаммаджон	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILAR FAOLIYATIGA JORIY ETILISH YO'NALISHLARI.....	1828
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI: O'ZBEKISTON AGRAR SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI VA JAHON SAVDO TASHKILOTIGA INTEGRATSIYA MASALALARI.....	1833
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	



EKOMARKETING: BOZOR TALABINING YANGI YO'NALISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT OMILI.....	1838
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	1844
Jabborov Bahridin Rashidovich	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	1849
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
IJTIMOY NIHOYAGA MUHTOJ AHOLINI MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1854
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
ВКЛАД ОБЪЕКТОВ НАСЛЕДЯ В ТУРИСТИЧЕСКИЕ ПОТОКИ И ЭКОНОМИКУ ГОРОДОВ.....	1859
Азизова Назира Тохтаевна	
ОПТИМИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1863
Минутдинова Лилия Тагировна	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ И СПЕЦИФИКА БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЭКОНОМИКУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1868
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
ЭКОЛОГИК MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	1872
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1879
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўгли, Маматкулов Хумоюн Бобир ўгли	
EKSPORT SALONIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTSIONAL VA TARKIBIY XUSUSIYATLARI.....	1887
Raximov To'xtabek Jumaboyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1894
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING MONITORING MECHANISMS FOR ASSESSING THE LEVEL OF FINANCIAL INCLUSION BASED ON AN INFORMATION SYSTEM.....	1899
Adashaliyev Bakhtiyorjon Valisher o'g'li	
ISLOM BANKLARI ORQALI IJTIMOY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MODELI	1905
Voxidov Oybek Roziqovich	
УПУЩЕННЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ПОТЕНЦИАЛ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	1909
Алиева Эльнара Аметовна	
QISHLOQ JOYLARI AHOLISI BANDLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION YO'LLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1916
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH	1921
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
WAYS TO IMPROVE THE PERFORMANCE OF INVESTMENT FUNDS	1924
Khoshimov Jakhongir Ravshanbek ugli	
RAQAMLI HIKOYALASH ORQALI YASHIL QURILISH MATERIALLARI UCHUN EKO-MARKETING QAROR TUZILMALARI.....	1929
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA FAOLIYAT YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MARKETING, LOGISTIKA VA SOTISH TIZIMINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1939
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
KORXONALAR TOMONIDAN INVESTITSIYA QARORLARINI QABUL QILISH HAMDA ULARNING SAMARALI FOYDALANILISHINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	1954
Isakova Naima Ikromjonovna	



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING XALQARO ASOSLARI.....	1960
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASI.....	1966
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
ELEKTR ENERGIYANI SOTUVCHI KORXONALARDA ENERGIYA YO'QOTISHLARINI HISOBGA OLISH	1972
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
O'ZBEKISTON AGRAR SOHASIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA PAST BALANDLIK IQTISODIYOTI.....	1977
Kadirov Shuxrat Munavvarovich	
BANK XODIMLARI FAOLIYATINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINING MENEJMENT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1986
Jamolov Alovuddin Jaloliddin o'g'li	
ФАКТОРЫ И ФОРМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИННОВАЦИИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ОСОБЕННОСТИ И ТИПЫ.....	1992
Бекбосынов Айдос Куралбаевич	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕРСОНАЛА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	1997
Нуриддинова Холисахон Равшан кизи	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YECHIMLAR VA MAQSADLI DASTURLARI	2006
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2013
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
ICHKI MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2018
Hakimov Nodir Nazarovich	
SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	2023
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI, KUTILAYOTGAN KREDIT YO'QOTISHLARI VA BANK RISKLARI AUDITINING KOMPLEKS MODELLARI.....	2027
Xayrullayev O'tkir Ismailovich	
KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVINING SOLIQ TIZIMIDAGI AHAMIYATI	2032
Mamaraimov Ilhomjon Rajabboyevich	
ENHANCING HUMAN CAPITAL POTENTIAL IN THE REGION: EVIDENCE FROM KHOREZM REGION.....	2037
Sobirov Yuldoshboy Ruzimboyevich	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI	2044
Masharipova Manzura Alimbayevna	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Masharipova Manzura Alimbayevna

“Ma'mun universiteti” NTM,

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti

E-mail: manzuraalimbaevna@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2108-5237

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston korxonalarining Jahon savdo tashkiloti (JST) talablari doirasidagi xalqaro raqobatbardoshligi texnologik va moliyaviy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududiy sanoat korxonalarining innovatsion faolligi, xalqaro sertifikatlash darajasi, likvidlilik va rentabellik ko'rsatkichlari baholangan. Shuningdek, JSTning Subsidiyalar va kompensatsiya chorolari bo'yicha bitimi (SCM Agreement) sharoitida davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining transformatsiyasi hamda “Yashil savat” tamoyillari asosida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari milliy korxonalarining global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, xalqaro raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya, moliyaviy barqarorlik, sanoat korxonalari, SCM bitimi, eksport salohiyati, xalqaro standartlashtirish, hududiy iqtisodiyot, “Yashil savat”, global qiymat zanjiri.

Abstract. This article analyzes the international competitiveness of enterprises in Uzbekistan within the framework of the requirements of the World Trade Organization (WTO) from technological and financial perspectives. The study evaluates the innovative activity of regional industrial enterprises, the level of international certification, as well as liquidity and profitability indicators. In addition, the transformation of state support mechanisms under the WTO Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement) and the directions for improving competitiveness based on the “Green Box” principles are scientifically substantiated. The research findings are important for enhancing the integration of national enterprises into global value chains, increasing export potential, and improving adaptation to international standards.

Key words: World Trade Organization, international competitiveness, innovative development, technological modernization, financial stability, industrial enterprises, SCM Agreement, export potential, international standardization, regional economy, Green Box, global value chain.

Аннотация. В данной статье проанализирована международная конкурентоспособность предприятий Узбекистана в рамках требований Всемирной торговой организации (ВТО) с технологической и финансовой точек зрения. В ходе исследования были оценены инновационная активность региональных промышленных предприятий, уровень международной сертификации, а также показатели ликвидности и рентабельности. Кроме того, научно обоснованы направления трансформации механизмов государственной поддержки в условиях Соглашения ВТО по субсидиям и компенсационным мерам (SCM Agreement), а также пути повышения конкурентоспособности на основе принципов «Зелёной корзины». Результаты исследования имеют важное значение для интеграции национальных предприятий в глобальные цепочки создания стоимости, повышения экспортного потенциала и совершенствования процессов адаптации к международным стандартам.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, международная конкурентоспособность, инновационное развитие, технологическая модернизация, финансовая устойчивость, промышленные предприятия, Соглашение SCM, экспортный потенциал, международная стандартизация, региональная экономика, «Зелёная корзина», глобальная цепочка создания стоимости.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro savdoning liberallashtirish va raqobat muhitining kuchayishi milliy iqtisodiyotlar oldiga yangi strategik vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, Jahon savdo tashkiloti (JST) tizimiga integratsiyalashuv jarayonlari rivojlanayotgan davlatlar uchun korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. JST qoidalariga muvofiq bo'jxona tariflari va proteksionistik mexanizmlarning bosqichma-bosqich qisqarishi milliy korxonalarining barqaror rivojlanishini ularning texnologik tayyorgarligi, innovatsion faolligi va moliyaviy barqarorligiga yanada ko'proq bog'liq holga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lish jarayonining faollashuvi mamlakat sanoat korxonalari oldiga xalqaro raqobat talablariga moslashish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda. Mazkur holat JST sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini kompleks baholash, texnologik va moliyaviy transformatsiya mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularni ilmiy asoslash zaruratini yanada dolzarb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon savdo tashkiloti (JST) sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasi xalqaro iqtisodiyot, sanoat siyosati, innovatsion rivojlanish va institutsional transformatsiya nazariyalari kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masala yuzasidan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan raqobat ustunliklari, global qiymat zanjirlari, innovatsion rivojlanish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining JST talablari bilan uyg'unlashuvi bo'yicha turli ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini nazariy jihatdan asoslab bergan klassik iqtisodchi olimlardan biri M. Porter hisoblanadi. Uning "Millatlarning raqobat ustunligi" konsepsiyasiga ko'ra, mamlakat yoki hududning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar bilan emas, balki innovatsion salohiyat, texnologik modernizatsiya, institutsional muhit hamda korxonalar o'rtasidagi ichki raqobat darajasi bilan belgilanadi. Porterning "raqobat olmosi" modeli JST sharoitida korxonalarining eksport salohiyati va xalqaro bozorlarga moslashuvchanligini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish omillarining sifati va klasterlashuv jarayonlari ushbu konsepsiyada markaziy o'rin egallaydi.

J. Sachs va J. Stiglitzlarning ilmiy ishlari globallashtirish hamda savdo liberallashtirishning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Sachs xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholab, eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish texnologik transformatsiyani jadallashtirishini ta'kidlaydi. J. Stiglitz esa JST va global bozor qoidalarini rivojlanayotgan davlatlar uchun har doim ham teng imkoniyatlar yaratmasligini, ayniqsa subsidiyalar va texnologik tafovutlar iqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkinligini qayd etadi. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifasi to'g'ridan-to'g'ri proteksionistik choralarni qo'llash emas, balki innovatsion infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashdan iborat bo'lishi kerak.

R. Nelson va S. Winterlarning evolyutsion iqtisodiyot nazariyasida korxonalarining raqobatbardoshligi texnologik moslashuvchanlik hamda innovatsion qobiliyat bilan bog'lanadi. Mualliflar innovatsiyalarni korxonaning uzoq muddatli ustunligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin qilib, texnologik eskirish va modernizatsiya sur'atlari sanoat korxonalarining xalqaro bozordagi mavqei belgilashini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu yondashuv JST sharoitida texnologik standartlarga moslashish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarining texnologik raqobatbardoshligini baholashda asosiy fondlarning eskirish darajasi, innovatsion faollik koeffitsiyenti, xalqaro sertifikatlash darajasi hamda energiya sig'imi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Moliyaviy raqobatbardoshlikni aniqlashda esa mutlaq likvidlilik, rentabellik, debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatlari asosiy indikatorlar sifatida qabul qilindi. Hududlar kesimida olingan ma'lumotlar o'zaro qiyoslanib, sanoat korxonalarining JST sharoitidagi imkoniyatlari va ehtimoliy xavf-xatarlari aniqlashtirildi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon banki, OECD va WIPO hisobotlarida innovatsion rivojlanish hamda xalqaro raqobatbardoshlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida qayd etilgan. WIPO tomonidan e'lon qilinadigan Global innovatsion indeks mamlakatlarning innovatsion salohiyatini baholash orqali ularning texnologik tayyorgarlik darajasi va iqtisodiy modernizatsiya imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlarda innovatsion infratuzilmaga investitsiyalarni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish xalqaro raqobatbardoshlikning muhim omillari sifatida talqin etiladi.



JSTning Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitimi (SCM Agreement) doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda davlat tomonidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining transformatsiyasi masalasi keng yoritilgan. A.O. Krugger, B. Hoekman va P. Mavroidis kabi olimlar JST qoidalari sharoitida eksport subsidiyalari va selektiv imtiyozlarning cheklanishi natijasida davlat siyosati "to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish" modelidan "institutsional rivojlantirish" modeliga bosqichma-bosqich o'tishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, infratuzilma, ilmiy tadqiqotlar, ekologik modernizatsiya va standartlashtirishni qo'llab-quvvatlash JST tomonidan ruxsat etilgan "Yashil savat" mexanizmlarining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham korxonalar raqobatbardoshligi va JSTga integratsiyalashuv masalalari keng o'rganilgan. Xususan, A. Rasulov, S. G'ulomov, B. Berkinov, N. Jumaev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, hududiy sanoatni diversifikatsiyalash hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tish masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda korxonalarining moliyaviy barqarorligi, energiya samaradorligi va xalqaro standartlashtirish darajasi xalqaro raqobatbardoshlikning muhim omillari sifatida baholanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, JST sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasi asosan innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya va institutsional transformatsiya bilan bog'liq holda o'rganilgan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot hududiy korxonalarining JST sharoitiga moslashuv darajasi, texnologik transformatsiya jarayonlari va moliyaviy barqarorligini tizimli tahlil qilish orqali ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston korxonalarining Jahon savdo tashkiloti (JST) talablari doirasidagi xalqaro raqobatbardoshligini baholashda kompleks tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, institutsional yondashuv hamda dinamik kuzatuv usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida WIPO Global Innovation Index, Jahon banki, OECD, WTO hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlaridan asosiy empirik manba sifatida foydalanildi. Shuningdek, hududiy sanoat korxonalarining texnologik va moliyaviy holatini baholash uchun statistik ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash va umumlashtirish usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonining jadallashuvi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xususan, hududiy sanoat korxonalarini oldiga chuqur tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiya vazifalarini qo'yimoqda. Erkin savdo tartibiga o'tish hamda bojxona-tarif himoyasining bosqichma-bosqich qisqarishi sharoitida hududiy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi barqaror faoliyati va raqobatbardoshligi bevosita ularning texnologik va moliyaviy salohiyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Baholash jarayoni ikki asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirildi:

- texnologik tayyorgarlik va innovatsion faollik darajasi;
- moliyaviy barqarorlik va likvidlilik ko'rsatkichlari.

Mamlakatimiz korxonalarining texnologik raqobatbardoshligi holati hududiy sanoat korxonalarida texnologik transformatsiya jarayonlarining notekis rivojlanayotganini aks ettiradi. Texnologik raqobatbardoshlik deganda korxonaning JSTning texnik reglamentlari va xalqaro standartlari talablariga mos keladigan, energiya va resurslarni tejovchi hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati tushuniladi.

Texnologik raqobatbardoshlik innovatsiyalar va ularni amaliyotga joriy etish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizning xalqaro innovatsion reytinglardagi o'rnini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, WIPO tomonidan e'lon qilinadigan Global Innovation Index ko'rsatkichlari O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion faoliyat va texnologik modernizatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich faollashib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot, innovatsion infratuzilma, startup ekotizimi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni tashkil etgan hamda innovatsion texnologiyalarni faol joriy qilayotgan korxonalarining eksport salohiyati yuqoriroq bo'lib, ularning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, ISO, HACCP, GMP va boshqa xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etgan korxonalarda mahsulot sifati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda (1-jadval).



1-jadval. Global Innovatsion Indeks (GII) reytingida yetakchi mamlakatlar, MDH va Markaziy Osiyo davlatlarining o'rne qiyosiy tahlili

	Davlatlar	2015-yil	2020-yil	2025-yil	2025-yildagi GII indeksi
Global innovatsion yetakchilar (Top-5)	Shveysariya	1	1	1	66.0
	Shvetsiya	3	2	2	62.6
	AQSh	5	3	3	61.7
	Koreya Respublikasi	14	10	4	60.0
	Singapore	7	8	5	59.9
MDH davlatlari	Rossiya Federatsiyasi	48	47	60	30.3
	Armaniston	61	61	59	30.5
	Ukraina	64	45	66	29.7
	Belarus	53	64	85	25.1
Markaziy Osiyo davlatlari	O'zbekiston	(122)	93	79	26.5
	Qozog'iston	82	77	81	26.3
	Qirg'iziston	109	94	96	22.6
	Tojikiston	114	109	108	21.0

Manba: Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) "Global Innovation Index 2015, 2020, 2025" rasmiy hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Shveysariya, Shvetsiya va AQSh kabi an'anaviy yetakchi davlatlar innovatsion ekotizimning institutsional va texnologik ustunligi hisobiga uzoq yillardan buyon top-3 talikdagi mavqeini saqlab kelmoqda. Koreya Respublikasi hamda Singapurning yuqori natijalarga erishishi esa Osiyo-Tinch okeani mintaqasida "chuqur yuqori texnologiyalar" (deep-tech) va yarimo'tkazgichlar sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalar samarasi bilan izohlanadi.

MDH hududida esa ayrim institutsional va tashqi iqtisodiy omillar ta'sirida 2020–2025-yillar oralig'ida Rossiya (47-o'ringan 60-o'ringa) hamda Belarus (64-o'ringan 85-o'ringa) reytinglarida sezilarli pasayish kuzatildi. Mazkur holat xalqaro texnologik zanjirlardagi uzilishlar, kapital va intellektual resurslar harakatining cheklanishi hamda tashqi iqtisodiy bosimlarning ortishi bilan izohlanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida esa O'zbekistonning subregional yetakchilikka erishishi innovatsion rivojlanish sohasiga qaratilgan yuqori e'tibor, strategik hamkorlik va samarali investitsiyalar natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston 2015-yilda ma'lumotlar yetarli bo'lmagani sababli indeksga kiritilmagan bo'lsa, 2020-yilda 93-o'rinni, 2025-yilga kelib esa 79-o'rinni egalladi. Natijada mamlakat o'z tarixida ilk bor mintaqaviy raqobatchisi — Qozog'istonni (81-o'rin) ortda qoldirib, Markaziy Osiyoning innovatsion rivojlanish bo'yicha yetakchi davlatiga aylandi.

WIPO ekspertlari O'zbekistonni yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan innovatsiyalar sohasida kutilganidan yuqori natijalarni namoyon etayotgan mamlakatlar qatoriga kiritgan. Ayniqsa, "Innovatsion resurslar" yo'nalishi bo'yicha, ya'ni ta'limni moliyalashtirish va infratuzilmaga yo'naltirilayotgan davlat xarajatlari ijobiy samaradorlikni ta'minlamoqda. Biroq, "Innovatsion natijadorlik" ko'rsatkichining nisbatan past darajada saqlanib qolayotgani investitsiyalarni tijoratlashtirish va ularni xalqaro patentlar hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga aylantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

JST qoidalari, xususan Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitim (SCM Agreement), reytingda past natija qayd etayotgan "Ijodiy mahsulotlar eksporti" va "Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish" kabi yo'nalishlarni to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalashni cheklashi sababli, O'zbekiston davlat ko'magini "Yashil savat" tamoyillari asosida ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion institutlarni mustahkamlash va texnologik modernizatsiyani qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, respublika hududlarida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining texnologik tarkibini o'rganish natijalari ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismi hanuzgacha past texnologiyali (low-tech) va o'rta-past texnologiyali (medium-low-tech) tarmoqlarga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Eng yuqori texnologik unumdorlik va raqobatbardoshlik Toshkent shahri hamda Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi yirik metallurgiya va kimyo majmualarida kuzatilmoqda. Bu, avvalo, Toshkent shahri innovatsion ekotizimida 108 mingdan ortiq korxonaning faoliyat yuritayotgani bilan izohlanadi.



Shu bilan birga, Farg'ona, Namangan, Andijon va Xorazm viloyatlaridagi agrosanoat hamda to'qimachilik korxonalarida texnologik eskirish koeffitsiyenti o'rtacha 42–48 foizni tashkil etmoqda. Mazkur holat ishlab chiqarish samaradorligi va xalqaro standartlarga moslashuv darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 33,2 foizni tashkil etsa-da, ularning ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirayotgan mablag'lari umumiy daromadlarining 0,2 foizidan ham kam qismini tashkil etadi.

Moliyaviy raqobatbardoshlik kategoriyasi korxonaning investitsion jozibadorligi, o'zini o'zi moliyalashtirish salohiyati, likvidlilik darajasi hamda kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. JST qoidalari, xususan Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitim (SCM Agreement), davlat tomonidan mahalliy korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy dotatsiyalar, eksport subsidiyalari va imtiyozli kreditlar ajratilishini sezilarli darajada cheklaydi. Shu sababli korxonalarining sof bozor sharoitidagi moliyaviy barqarorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarining moliyaviy holati chuqur segmentatsiyalashganligi bilan tavsiflanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar (asosan Xitoy, Rossiya va Turkiya kapitali asosida tashkil etilgan korxonalar) yuqori moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonning tanlangan iqtisodiy hududlari kesimida sanoat korxonalarining texnologik va moliyaviy raqobatbardoshligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston hududlari korxonalarining 2024–2025-yillarda texnologik va moliyaviy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili¹

Tr	Hududlar	Asosiy fondlar eskirish darajasi, %	Innovatsion faollik koeffi-ti	Xalqaro sertifikatli korxonalar ulushi, %	Mutloq likvidlilik koeffitsiyenti	Korxonalar rentabelligi, %	Debit-k va kred-k qarzlari nisbati
1	Toshkent shahri	28.4	1.45	34.2	0.28	14.5	1.12
2	Navoiy viloyati	31.2	1.10	28.5	0.24	13.8	1.05
3	Toshkent viloyati	36.2	0.62	22.1	0.19	11.2	0.85
4	Buxoro viloyati	38.5	0.55	19.4	0.18	10.4	0.82
5	Andijon viloyati	39.1	0.58	21.0	0.17	10.1	0.79
6	Samarqand viloyati	41.5	0.48	16.8	0.16	9.4	0.74
7	Farg'ona viloyati	44.1	0.35	14.5	0.14	8.1	0.68
8	Namangan viloyati	43.8	0.32	15.2	0.15	8.3	0.71
9	Qashqadaryo viloyati	42.6	0.40	13.8	0.13	7.9	0.65
10	Sirdaryo viloyati	45.2	0.28	12.4	0.14	7.6	0.63
11	Xorazm viloyati	46.8	0.22	11.2	0.12	7.3	0.61
12	Jizzax viloyati	44.5	0.30	12.9	0.13	7.8	0.66
13	Surxondaryo viloyati	47.2	0.18	9.5	0.11	6.8	0.58
14	Qoraqalpog'iston Resp.	45.9	0.25	10.8	0.12	7.1	0.60
-	Respublika bo'yicha o'rtacha	39.4	0.62	19.8	0.18	10.1	0.80

Jadval ma'lumotlari tahlili O'zbekiston sanoatida hududiy qutblashuv tendensiyasi mavjudligini yaqqol namoyon etmoqda. Bunda poytaxt va ayrim hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Xususan, Xorazm

1 Davlat Statistika agentligi va Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



va Farg'ona viloyatlaridagi sanoat korxonalarida asosiy fondlarning eskirish darajasi mos ravishda 46,8 foiz va 44,1 foizni tashkil etib, respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (39,4 foiz) yuqoriligicha qolmoqda. Bu holat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning texnologik sifati va tannarx ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Texnologik jihatdan yetakchi hududlar — Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarida yirik tog'-kon, metallurgiya, kimyo hamda avtomobilsozlik sanoati majmualari jamlangani sababli asosiy fondlarning eskirish darajasi nisbatan past (28,4–36,2 foiz oralig'ida) va innovatsion faollik ko'rsatkichlari ham yuqori darajada shakllangan. Xususan, Navoiy viloyatida ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilayotgan xarajatlar ulushi (1,10 foiz) va xalqaro sertifikatlash darajasi (28,5 foiz) NKMK kabi yirik sanoat korxonalarini faoliyati hisobiga respublika o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli yuqori ekanligi kuzatilmoqda.

O'rta texnologik va agrosanoat hududlari — Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlari nisbatan diversifikatsiyalashgan sanoat bazasiga ega. Masalan, Andijon viloyatida mashinasozlik va klaster tizimining rivojlangani natijasida innovatsion faollik darajasi 0,58 foizni, xalqaro sertifikatlash ulushi esa 21,0 foizni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, texnik jihozlanishning asosiy qismi hanuz o'rta texnologik darajada saqlanib qolmoqda.

Texnologik va moliyaviy xavf guruhiga kiruvchi hududlar — Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida JST sharoitida import bosimiga nisbatan sezgirlik yuqori ekanligi kuzatiladi. Xususan, Surxondaryo viloyatida asosiy fondlarning eskirish darajasi eng yuqori (47,2 foiz), innovatsion faollik esa eng past (0,18 foiz) ko'rsatkichni qayd etgan.

Moliyaviy ko'rsatkichlar nuqtayi nazaridan qaralganda, mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti faqat Toshkent shahrida me'yoriy talablarga yaqin natijani namoyon etmoqda. Boshqa hududlarda ushbu ko'rsatkich 0,12–0,19 oralig'ida shakllangan bo'lib, bu korxonalarining qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish va tashqi iqtisodiy ta'sirlarga moslashish imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatadi. Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi Toshkent shahrida 14,5 foizni tashkil etgani holda, ayrim hududlarda, jumladan Xorazm viloyatida 7,3 foiz darajasida qayd etilgan.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatining respublika bo'yicha o'rtacha 0,80 ni tashkil etishi hududiy korxonalarda aylanma mablag'lar yetishmovchiligi mavjudligini anglatadi. Mazkur ko'rsatkichning 1,0 dan past bo'lishi kreditorlik qarzdorligining, ayniqsa xomashyo yetkazib beruvchilar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning, debitorlik qarzlariga nisbatan tezroq o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda muhim masalalardan biri amaldagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining JST normalariga moslashuv jarayonidir. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish doirasida uzoq yillar davomida hududiy ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va maqsadli imtiyozli kreditlar taqdim etib kelinmoqda.

JSTning Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitimiga (SCM Agreement) muvofiq subsidiyalar quyidagi uch asosiy toifaga ajratiladi:

1. Taqiqlangan subsidiyalar — eksport ko'rsatkichlariga yoki mahalliy xomashyodan foydalanish shartlariga bevosita bog'langan subsidiyalar. O'zbekiston JSTga to'liq a'zo bo'lganidan so'ng eksportyor korxonalariga berilayotgan ayrim soliq va transport imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bu holat eksportga yo'naltirilgan to'qimachilik hamda meva-sabzavot klasterlarining moliyaviy samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

2. Chora ko'rish mumkin bo'lgan subsidiyalar — muayyan hudud yoki tarmoq korxonalariga yo'naltirilgan va boshqa davlatlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan selektiv qo'llab-quvvatlash choralaridir. Maxsus iqtisodiy zonalarda qo'llanilayotgan ayrim soliq imtiyozlari kelgusida JST a'zolari tomonidan muhokama qilinishi va kompensatsiya mexanizmlarining qo'llanishiga sabab bo'lishi mumkin.

3. Chora ko'rilmaydigan subsidiyalar — bozor mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, umumiy xarakterga ega yordam shakllari bo'lib, ularga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish, ekologik modernizatsiya, infratuzilmani rivojlantirish va hududiy taraqqiyot dasturlari kiradi. Respublikamizdagi ko'plab mahalliy korxonalarda aynan ushbu turdagi subsidiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, amaldagi moliyaviy tizim mexanizmlari korxonalarini ko'proq "passiv raqobatbardoshlik" modeliga yo'naltirib kelmoqda. Ya'ni, ayrim hollarda raqobat ustunligi asosan davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyoz va preferensiyalar hisobiga nisbatan arzon mahsulot ishlab chiqarish orqali shakllanmoqda. Texnologik nuqtayi nazardan esa, ko'plab korxonalar xalqaro ishlab chiqarish va qiymat zanjirlariga integratsiyalashishdan ko'ra, ichki bozor talablariga moslashgan holda faoliyat yuritmoqda.

Mazkur holat uzoq muddatli istiqbolda korxonalarining xalqaro bozorlardagi barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash uchun texnologik modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi (3-jadval).



3-jadval. O'zbekiston hududiy sanoat korxonalarining JST sharoitidagi texnologik va moliyaviy raqobatbardoshligi bo'yicha SWOT-tahlili²

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Hududlarda arzon va nisbatan malakali mehnat resurslarining mavjudligi. Mahalliy xomashyo bazasining (paxta, ipak, tabiiy gaz, kimyoviy resurslar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) yetariligi. Yirik hududlarda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar dinamikasining yuqoriligi. Raqamli infratuzilmaning ("Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida) rivojlanib borayotgani.	Sanoat uskunalarining yuqori darajada ma'naviy va jismoniy eskirganligi. Korxonalarda mutloq likvidlilik ko'rsatkichlarining pastligi va surunkali debitorlik-kreditorlik qarzlari. Ilim-fanga xarajatlarining juda past ulushi va innovatsiyalarni tijoratlashtirish tizimining sustligi. Xalqaro ekologik va texnik standartlar (ISO/CE) sertifikatlariga ega korxonalarining kamligi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavf-xatarlar (Threats)
JSTga a'zolik orqali 160 dan ortiq davlatlar bozorlariga kamsitishsiz, eng qulay shartlarda chiqish. Global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv va transmilliy korporatsiyalarning texnologik litsenziyalarini jalb qilish. "Yashil" va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali xalqaro grantlar va venchur fondlarini jalb etish. Davlat ko'magini "Yashil savat" mexanizmlariga o'tkazish orqali infratuzilmani tubdan yangilash.	Bojxona tariflari pasaygandan so'ng, ichki bozorda chet el transmilliy kompaniyalari tomonidan import bosimining keskin ortishi. JST taqiqlari sababli eksportni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy subsidiyalash imkoniyatidan mahrum bo'lish. Energetika sohasidagi islohotlar (narxlarning bozor darajasiga chiqishi) natijasida energiya sig'imi yuqori korxonalarining ommaviy bankrotlikka uchrashi. Mahalliy malakali kadrlar va "miyalarning" xorijiy yoki qo'shma kompaniyalarga oqib ketishi (hududiy korxonalarda kadrlar tanqisligi).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz korxonalarining texnologik va moliyaviy raqobatbardoshlik darajasi JSTning yuqori raqobat talablariga to'liq moslashish bosqichida shakllanmoqda. Toshkent shahri hamda ayrim sanoatlashgan hududlarni hisobga olmaganda, ko'plab hududiy korxonalarda likvidlilik darajasining pastligi, energiya sig'imining yuqoriligi va texnologik bazaning eskirgani kuzatilmoqda. Mazkur holat ularning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini cheklovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

JST normalarining amaliyotga joriy etilishi natijasida an'anaviy proteksionistik choralar hamda to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy subsidiyalarni qo'llash imkoniyatlari bosqichma-bosqich qisqarib boradi. Shu sababli davlatning hududiy iqtisodiy siyosatini korxonalariga individual imtiyozlar berish modelidan umumiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro standartlashtirish tizimlarini qo'llab-quvvatlash va energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan "Yashil savat" mexanizmlariga transformatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
- Sachs J. D. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. – New York: Penguin Press, 2005. – 448 p.
- Stiglitz J. E. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 304 p.
- Nelson R., Winter S. An Evolutionary Theory of Economic Change. – Cambridge: Harvard University Press, 1982. – 454 p.
- Hoekman B., Kostecki M. The Political Economy of the World Trading System: The WTO and Beyond. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 768 p.
- Mavroidis P. C. The Regulation of International Trade: WTO Agreements and Their Interpretation. – Cambridge: MIT Press, 2016. – 820 p.
- [World Intellectual Property Organization \(WIPO\)](#). Global Innovation Index 2025. – Geneva: WIPO Publications, 2025. – 412 p.
- O'g'li J. F. D. (2025). Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ekologik innovatsiyalarning ahamiyati. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), 12(1), 1867–1873.
- Matkarimov M., Madraximov Q., Sherjonov S., Nurjonov J. The Purpose of Assessing a Person's Entrepreneurial Capacity is to Classify Their Quality Characteristics. Green Economy and Development, 3(8), 666659.
- [World Intellectual Property Organization \(WIPO\)](#). Global Innovation Index 2020. – Geneva: WIPO Publications, 2020. – 398 p.
- Xolmurotov F., Madraximov Q., Xodjaniyazov S., Yakubova Y., Xolmurotov X. (2025). Dynamic Relationships between Energy Consumption, Environmental Sustainability and Economic Growth: An ARDL Analysis. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3331, No. 1, p. 030022). AIP Publishing LLC.
- Rasulov A. O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro integratsiyalashuv masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 288 b.

² Muallif ishlanmasi



13. Jumaniyozov Feruzbek Dilshod O'g'li (2025). Theoretical Basis and Importance of the Green Economy Concept in Sustainable Economic Growth of the Region. 8(11), 5488–5496.
14. Berkinov B. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmlari. – Toshkent: Fan, 2022. – 264 b.
15. O'g'li J. F. D. (2024). Yashil iqtisodiyotga o'tishda chiqindilarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(10), 115–121.
16. Halmuratov G., Madraximov Q., Zakirova G., Xolmurotov X., Djumabayeva S., Yaqubova Y., Xolmurotov F. (2025). The Impact of Energy Consumption and Trade Openness on Economic Growth in Uzbekistan: A VECM Approach. International Journal of Energy Economics and Policy, 15.
17. Jumaev N. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning institutsional omillari. – Toshkent: Universitet, 2021. – 301 b.
18. [World Trade Organization \(WTO\)](#). Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement). – Geneva: WTO Publications, 2024. – 164 p.
19. [United Nations Industrial Development Organization \(UNIDO\)](#). Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Industrialization. – Vienna: UNIDO, 2024. – 430 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
